

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYANING QABUL QILINISHI

Ilmiy rahbar: Azamova Sitora Ayonovna

SHDPI ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Abduraximov Ruslan

SHDPI Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va

huquq ta’limi yo’nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquq ijodkorligi, Konstitutsiyaning inson hayotidagi o‘rni, yangi tahrirdagi konstitutsiyamizdagi o‘zgarish va qo‘shimchalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Huquq, konstitutsiya, burch, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquq ijodkorligi.

O‘zbekiston Respublikasida 1990–yilning 20–iyunida Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilindi. Shu kundan boshlab davlatni bosh qomusi bo‘lmish konstitutsiyamiz ustida ishlash boshlanadi. Biz bu o‘rinda takidlash joizki, shu kundan boshlab konstitutsiya va boshqa ramzlar to‘g‘risidagi qonunlar qabul qilindi. Konstitutsiyamizning 5–moddasiga ko‘ra bayrog‘, gerb, madhiya ya’ni davlat ramzlari davlat himoyasidadir deb belgilab qo‘yilgan. Ayni bu modda orqali davlat ramzlari qay darajada himoya qilinishini ko‘rishimiz mumkin. Misol tariqasida biz konstitutsiyamizdagi barcha moddalarda inson huquqlarini himoya qilinishini ko‘rishimiz mumkin.

1990–yilning 20–iyunida konstitutsiya komissiyasi tuzildi. Bu komissiyaning asosiy vazifasi tezroq Konstitutsiyaning loyihasini ishlab chiqish bo‘lib bu boradi, tinimsiz davom etdilar. Mamlakatimizda konstitutsiya loyihasini umumxalq muhokamasiga ikki bosqichda o‘tkazilgan bo‘lib:

Birinchisi:

—1992-yil 26–sentyabrda bo‘lib o‘tdi.

Ikkinchisi:

—1992-yil 21–noyabrda bo'lib o'tdi.

Shu tarzda 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu sana shu kundan buyon nishonlanib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tuzilishi quyidagicha bo'lib, ya'ni:

Muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iboratdir. Ushbu konstitutsiyaga 2023–yilgacha 15 Dan ziyod qo'shimcha va o'zgarishlar kiritildi.

Konstitutsiyamizga kiritilgan eng katta o'zgarishlardan biri bu 2023 - yilning 30-aprelida bo'lib o'tgan referendum bo'lib, shu kuni yangi tahrirdagi konstitutsiyamiz qabul qilindi. Aynan Ushbu konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishlar quyidagichadir:

30–April kuni bo'lib o'tgan referendum natijasiga ko'ra 11 moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo'ldi. Bu qonunning 1–moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan. Yangilanish natijasiga ko'ra bosh qomusimizdagi moddalar soni 128 moddadan 155taga, undagi normalar esa 275 madaniyat 434 tagalong oshiriladi. Umumiy, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan.

Kundagi o'zgarishlar quyidagicha:

1. Yangi Konstitutsiyaning 154–moddasi bilan, 1-moddaning qoidalarini qayta ko'rib chiqish mumkin emas, deb belgilanadi. Xuddi shuningdek, 154–moddaning o'zidagi aynan shu qoidalardan iborat band qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas.

2. 15-moddaga quyidagicha qo'shimcha qo'shildi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

3. Imtiyozlar faqat qonunlar muvofiq belgilanadi. Ijtimoiy Adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

4. Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga xalqining etiladi.

5. Inson huquqlari ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash maqsadida cheklanishi mumkin. Insonning konstitutsiya va qonunlarga mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, hamda bulardan Sud qarorisiz mahrum etishiga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas.

6. O‘qituvchilarga alohida e‘tibor qaratildi. Ular uchun alohida modda qo‘shildi.

7. Yer xususiy mulk bo‘lishi mumkinligi takidlandi.

8. OAV faoliyatiga to‘sqinlik qilish javobgarlikka sabab bo‘ladigan bo‘ldi.

9. Davlat boshqaruvidagi o‘zgarishlar, Prezidentning vakolati 7yil bo‘ldi.

10. Mahalliy davlat hokimiyatidagi o‘zgarishlar. Hokimlar kengash raisligidan ketadigan bo‘ldi.

Xulosa o‘rnida takidlash joizki, yangi tahrirdagi konstitutsiyamiz yanada boyitilgan bo‘lib ushbu konstitutsiyada inson qadri yanada ulug‘langanligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Matn] Rasmiy nashr –Toshkent:" O‘zbekiston "nashriyoti, 2023–120 b
2. KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ DARSLIK —Toshkent::TDYU, 2020–188b.
3. WWW.//ziyonetuz.
4. Kun.uz.